

UDK 745:37.036

**MAHALLIY HUNARMANDCHILIK BEZAKLARIDA RANG VA SHAKL
UYG'UNLIGINING TASVIRIY - PEDAGOGIK AHAMIYATI**

Shodmonova Aziza Shokir qizi

Guliston davlat pedagogika instituti "Tasiriy san'at" yo'nalishi 1-kurs magistranti

Tel.: +998 901065969 Email: azizaturunova027@gmail.com

Annotatsiya (Abstract) *Mazkur maqolada mahalliy hunarmandchilik bezaklarida rang va shakl uyg'unligining badiiy hamda pedagogik ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda xalq amaliy san'atiga xos islmiy, girih va aralash naqsh kompozitsiyalarida rang muvozanati, shakllarning ritmik takrori, simmetriya va kompozitsion yaxlitlik qonuniyatlari o'rganilgan. Mahalliy bezak san'atining estetik xususiyatlari tasviriy tahlil, taqqoslash va pedagogik kuzatuv usullari asosida ochib berilgan. Shuningdek, tasviriy san'at ta'limi jarayonida mahalliy hunarmandchilik bezaklaridan foydalanish o'quvchilarning estetik tafakkurini, rang hissini va kompozitsion fikrlashini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligi asoslab berilgan. Maqolada olingan xulosalar tasviriy san'at ta'limi mazmunini boyitish, milliy madaniy merosni saqlash va uni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar (Keywords) *mahalliy hunarmandchilik, rang, shakl uyg'unlik, islmiy, girih, naqsh, kompozitsiya, ritm, san'at ta'limi, estetik tarbiya.*

KIRISH (INTRODUCTION)

Hozirgi global madaniy jarayonlar, axborot almashinuvining jadallashuvi va madaniy universallashtiruv tendensiyalari sharoitida milliy badiiy merosni saqlash, o'rganish hamda uni zamonaviy tasviriy san'at va ta'lim tizimiga integratsiya qilish dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biri hisoblanadi [3, b. 12-14]. Ayniqsa, xalq amaliy san'atiga mansub mahalliy hunarmandchilik bezaklari asrlar davomida shakllangan estetik tajriba, rang hissi va shakl tafakkurining mukammal ifodasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi [2, b. 47-50; 4, b. 5].

Mahalliy hunarmandchilik bezaklarida xalqning dunyoqarashi, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlari, estetik ideallari hamda milliy o'ziga xoslik belgilarini ko'rish mumkin [7, b. 118-120]. Ularda ranglar o'rtasidagi muvozanat, shakllarning ritmik takrori, simmetriya va kompozitsion yaxlitlik badiiy ifodalilikni ta'minlovchi asosiy omillar hisoblanadi [5, b. 21-24]. Shu jihatdan, tasviriy san'atda rang va shakl uyg'unligini mahalliy bezaklar asosida o'rganish milliy san'atning badiiy qonuniyatlarini anglash, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi [8, b. 50-52].

Bugungi kunda tasviriy san'at ta'limida o'quvchilarning estetik tafakkurini rivojlantirish, milliy madaniyatga bo'lgan hurmat va qiziqishni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mahalliy hunarmandchilik bezaklarini ta'lim jarayoniga

joriy etish orqali o'quvchilarda rang va shakl hissini rivojlantirish, kompozitsiya qonunlarini anglash va ijodiy faollikni oshirish mumkin.

Tadqiqotning asosiy maqsadi - mahalliy hunarmandchilik bezaklarida rang va shakl uyg'unligining tasviriy hamda pedagogik ahamiyatini aniqlashdan iborat [5, b. 14]. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, bezak san'atida rang va shaklning kompozitsion xususiyatlarini tahlil qilish, ritm va simmetriyaning badiiy ahamiyatini ochib berish hamda tasviriy san'at ta'limida mahalliy bezak san'atidan foydalanish imkoniyatlarini ilmiy asoslash vazifalari belgilandi [8, b. 49-51].

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, mahalliy hunarmandchilik bezaklarida rang va shakl uyg'unligi nafaqat badiiy qonuniyat sifatida, balki tasviriy san'at ta'limida o'quvchilarning estetik tafakkurini rivojlantiruvchi samarali pedagogik vosita sifatida asoslab berildi [7, b. 130-132].

ADABIYOTLAR TAHLILI (Literature Review)

Mahalliy hunarmandchilik va bezak san'ati masalalari ko'plab rassomlar va san'atshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, ular bezak san'atini kompozitsiya, rangshunoslik va shakl yaratish nuqtai nazaridan tahlil qilganlar [3, b. 15-18]. Tasviriy san'atga oid tadqiqotlarda bezak san'ati estetik tizim sifatida talqin qilinib, undagi ritm, simmetriya va rang munosabatlari badiiy tafakkurning muhim ko'rsatkichi sifatida ko'rsatilgan [8, b. 49]. Xususan, tasviriy va amaliy san'atda mahalliy hunarmandchilik bezaklarining rang va shakl uyg'unligi bo'yicha ilmiy ish olib borgan olimlar qatorida S. S. Bulatov, K. M. Gulyamov hamda R. Z. Xayrovlarning ilmiy tadqiqotlari va o'quv qo'llanmalari alohida ahamiyat kasb etadi [6, b. 9-13].

Pedagog olimlar esa tasviriy san'at ta'limida milliy bezak san'atidan foydalanish o'quvchilarning estetik didi, ijodiy faolligi va milliy o'zlikni anglashini rivojlantirishini ta'kidlaydilar [7, b. 127]. Jumladan, S. S. Bulatov va K. M. Gulyamovning «Amaliy san'at» asarida ranglar, milliy naqshlarda shakllarning estetikasi hamda ularning yaratilish bosqichlari yorqin ifodalangan [3, b. 214-220]. R. Z. Xayrovning «Dekorativ rangtasvir» o'quv qo'llanmasida esa rang va shakllarning dekorativ tarzda stilizatsiyalanishi hamda uslublashtirilishi jarayonlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan [5, b. 18-22]. Mualliflar dekorativ badiiy bezak san'atini tasviriy san'atda amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish ta'lim samaradorligini oshirishini ilmiy jihatdan asoslab berganlar [7, b. 130].

METODOLOGIYA (Methodology)

Ushbu tadqiqot mahalliy hunarmandchilik bezaklarida rang va shakl uyg'unligini ilmiy jihatdan o'rganishga qaratilgan bo'lib, uni amalga oshirish jarayonida kompleks ilmiy metodlar tizimidan foydalanildi. Tadqiqotda qo'llanilgan usullar bezak san'atining badiiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, ularning estetik qonuniyatlarini aniqlash va tasviriy san'at ta'limidagi amaliy ahamiyatini baholash imkonini berdi [6].

Birinchi navbatda, tahlil usuli qo'llanilib, mahalliy hunarmandchilik bezaklarining shakl, rang va kompozitsiyaga oid xususiyatlari o'rganildi [3]. Bu jarayonda xalq amaliy san'atiga mansub keramika, kashtachilik, yog'och o'ymakorligi va me'moriy bezak namunalari vizual va mazmunan tahlil qilindi [4]. Tahlil orqali bezaklardagi asosiy va

yordamchi ranglar o'rtasidagi munosabat, shakllarning proporsion joylashuvi hamda umumiy kompozitsion yaxlitlikka erishish usullari aniqlandi [2, b. 71-73].

Tadqiqotda taqqoslash usuli ham muhim o'rin tutdi. Ushbu usul orqali turli hududlarga xos mahalliy bezak namunalari o'zaro solishtirildi [3, b. 118-120]. Taqqoslash jarayonida rang gammasi, shakllar xarakteri, ritm va simmetriya qonuniyatlaridagi o'xshash va farqli jihatlar aniqlandi, bu esa mahalliy bezak san'atida umumiy badiiy qonuniyatlar bilan bir qatorda hududiy o'ziga xoslik mavjudligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi [5].

Shuningdek, tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv usuli qo'llanildi. Tasviriy san'at darslarida mahalliy hunarmandchilik bezaklaridan foydalanish jarayoni kuzatilib, o'quvchilarning rang tanlash, shakl yaratish va kompozitsiya tuzish ko'nikmalarining rivojlanishi tahlil qilindi. Pedagogik kuzatuv natijalari mahalliy bezak san'atining ta'limiy samaradorligini aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning muhim tarkibiy qismi sifatida tasviriy tahlil usuli qo'llanildi. Bu usul orqali bezak namunalarida kompozitsiya, ritm, simmetriya va rang muvozanati vizual jihatdan chuqur tahlil qilindi. Tasviriy tahlil mahalliy hunarmandchilik bezaklarida rang va shakl uyg'unligining badiiy qonuniyatlarini aniqlash va ularni tasviriy san'at nazariyasi nuqtai nazaridan izohlash imkonini berdi [9].

NATIJALAR VA MUHOKAMA (results and discussion)

Tahlil natijalari mahalliy hunarmandchilik bezaklarida rang va shakl uyg'unligi qat'iy badiiy qonuniyatlarga asoslanganligini ko'rsatdi. Asosiy va qo'shimcha ranglar o'rtasidagi muvozanat bezakning umumiy emotsional ta'sirini belgilaydi. Ko'p hollarda ranglar tabiiy muhit, milliy dunyoqarash va an'anaviy estetik qarashlar bilan uyg'un holda tanlangan. Geometrik shakllar aniqlik va tartibni ifodalasa, o'simliksimon shakllar harakat, rivojlanish va hayotiylik ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur shakllarning uyg'un joylashuvi kompozitsion yaxlitlikni ta'minlab, bezakning vizual ta'sirchanligini oshiradi.




1-rasm. Islimiy naqsh kompozitsiyasini tuzish

Mahalliy bezak san'atida kompozitsiya markaziy o'rin tutadi. Ritm shakllarning takroriy joylashuvi orqali yuzaga kelib, bezakka dinamika va vizual harakat baxsh etadi. Bu takrorlanish bir xillik emas, balki ma'lum qonuniyat asosidagi ritmik tizimdir. Simmetriya esa bezakning barqarorligi va estetik muvozanatini ta'minlaydi, ayrim hollarda asimmetrik yechimlar kompozitsiyada jonlilik va erkinlikni ifoda etadi. Ushbu qonuniyatlar tasviriy san'atda kompozitsiya asoslarini o'rgatishda nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi [7, b. 129].

Mahalliy bezak san'atida islamiy naqshlar o'simliksimon shakllar asosida tuzilib, harakat va rivojlanish g'oyasini ifodalaydi. Islamiy naqsh kompozitsiyasida shakllarning yumshoq ritmi va ranglar o'rtasidagi uyg'unlik kompozitsion yaxlitlikni ta'minlaydi (1-rasm.).

Girih naqsh kompozitsiyasi esa geometrik shakllar va qat'iy simmetriyaga asoslanib, tartib, muvozanat va barqarorlikni ifodalaydi (2-rasm). Bunday naqshlarda shakllarning takroriy joylashuvi orqali vizual ritm yuzaga keladi.

Ayrim bezak namunalarida islamiy va girih naqshlarining uyg'un qo'llanilishi kuzatiladi. Bunday aralash kompozitsiyalar shakl va rang uyg'unligini yanada boyitib, dekorativ ifodalilikni oshiradi (3-rasm).



2-rasm. Girih naqshi kompozitsiyasi



3-rasm. Aralash girih va islamiy naqsh kompozitsiyasi

Tasviriy san'at darslarida mahalliy bezak namunalari asosida ornament chizish, rang tanlash va kompozitsiya tuzishga qaratilgan amaliy mashqlar samarali natija beradi. O'quvchilar an'anaviy bezak elementlarini tahlil qilib, ular asosida o'z kompozitsiyalarini yaratishga harakat qiladilar. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarning ijodiy faolligini oshiradi, rang hissini rivojlantiradi va milliy madaniyatga bo'lgan qiziqishni mustahkamlaydi [8, b. 50].

Tadqiqot jarayonida mahalliy hunarmandchilik bezaklariga asoslangan kichik dars fragmenti sinovdan o'tkazildi. Xususan, 5–7-sinf tasviriy san'at darslarida "Milliy ornament asosida kompozitsiya tuzish" mavzusidagi amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi [9, b. 3]. Dars jarayonida o'quvchilar islamiy va girih naqshlarini tahlil qilib, ular asosida rangli kompozitsiyalar yaratdilar. Mazkur dars fragmenti o'quvchilarda rang hissini rivojlantirish, kompozitsion fikrlashni shakllantirish va ijodiy faollikni oshirishda samarali ekanligi aniqlandi [10].

XULOSA (Conclusion)

Ushbu tadqiqot natijalari mahalliy hunarmandchilik bezaklarida rang va shakl uyg'unligi tasviriy san'atning asosiy badiiy qonuniyatlariga tayangan holda shakllanganligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Bezak san'atida ranglar o'rtasidagi muvozanat, shakllarning proporsion joylashuvi, ritmik takrorlanish va simmetrik tuzilish umumiy kompozitsion yaxlitlikni ta'minlab, yuksak estetik qiymatni yuzaga

keltirishi aniqlandi. Mahalliy hunarmandchilik bezaklari asrlar davomida shakllangan badiiy tajriba mahsuli bo'lib, ularda xalqning estetik didi, dunyoqarashi va milliy o'ziga xoslik belgilarining mujassamlashgani ko'rsatildi.

Tadqiqot jarayonida mahalliy bezak san'ati namunasida kompozitsiya, ritm va simmetriya qonuniyatlari tahlil qilinib, ular tasviriy san'at nazariyasidagi umumiy qoidalar bilan uyg'un ekanligi aniqlandi. Ritm orqali vizual harakat va dinamika ta'minlanishi, simmetriya orqali esa estetik barqarorlik va muvozanatga erishilishi bezak san'atining muhim xususiyatlari sifatida belgilab olindi. Bu holat mahalliy hunarmandchilik bezaklarining nafaqat milliy, balki umumbadiiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi [11, b. 1055].

Maqolaning amaliy ahamiyati, avvalo, tasviriy san'at ta'limi jarayonida namoyon bo'ladi. Tadqiqotda keltirilgan xulosalar asosida tasviriy san'at darslarida mahalliy bezak san'atidan foydalanish o'quvchilarda rang hissini rivojlantirish, kompozitsion fikrlashni shakllantirish va ijodiy qobiliyatni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur materiallar asosida metodik qo'llanmalar, o'quv dasturlari va amaliy mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish mumkin.

Mahalliy bezak san'atini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish o'quvchilarda milliy madaniyatga hurmat, estetik did va badiiy merosga nisbatan mas'uliyat hissini shakllantiradi. Bu esa zamonaviy ta'lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, mahalliy hunarmandchilik bezaklari tasviriy san'atda yuqori estetik qiymatga ega bo'lgan samarali ta'limiy va tarbiyaviy vosita sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. Ahmadova S.A., Xayrov R.Z. TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA EKOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. (2025). Global Science Review, 7(1), 199-206. <https://global-science-review.com/ojs/index.php/gsr/article/view/3086>
2. Bulatov S.S. Rangshunoslik.-T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashryoti.-2009.-135-158 b.
3. Bulatov S.S., Gulyamov K.M. Amaliy san'at. -Toshkent "Iqtisod-moliya". 2014 y. - 540 b.
4. Murotov X.X, Jabborov R.R. "Amali va ba'diiy bezak san'ati" -T.: Ijod-Print nashryoti,-2020.-5 b.
5. Xayrov R. Z. Dekorativ rangtasvir //Guliston-2022. [9. - 2022. - T. 43.
6. Zolimkhan K. Training Future Fine Arts Teachers In The Context Of Digitalization //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2024. - T. 5. - №. 12. - C. 528-537.
7. Хайров, Р. (2025). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА ЧЕРЕЗ

АКВАРЕЛЬНУЮ ЖИВОПИСЬ. Предпринимательства и педагогика, 4(2), 126-136.
<https://inlibrary.uz/index.php/entrepreneurship-pedagogy/article/view/81026>

8. Yusupova Shoxista Alimjanovna. (2024). TOOLS AND CRITERIA OF COMPOSITION IN THE CREATIVE PROCESS OF FINE ARTS CLASSES OF UNIVERSITY SCHOOLS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 5(02), 48-58.
<https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-05-02-10>

9. Хайров Р. З., Султанов А. А. ИНДИВИДУАЛЬНЫЙ ПОДХОД К УЧЕНИКАМ НА УРОКАХ ИСКУССТВА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА // Символ науки. 2020. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/individualnyy-podhod-k-uchenikam-na-urokah-iskusstva-v-shkolah-uzbekistana>

10. Odiljanovna Y. N., Alimjanovna Y. S., Bolbekovich N. B. Problem Teaching Technology. Types of Teaching //International Journal on Orange Technologies. - 2021. - Т. 3. – №. 5. - С. 68-72.

11. Xudoyorov Shodiyor Ziyodullo o'g'li,/Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li. (2025). TASVIRIY SAN'AT VOSITALARIDA SIRDARYO VILOYATI OBIDALARINING BADIY TALQINI VA ESTETIK IFODASI. IQRO INDEXING, 18(01), 1053-1057.
<https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/16469>